



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

FOROBIY VA ZIYO G‘OKALP G‘OYALARINING UMUMIY JIHATLARI VA O‘ZIGA XOS TOMONLARI

Xamdamov Erkin Ibodullayevich

“Alfraganus University” nodavlat oily ta’lim tashkiloti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Tel.: +99899 517-34-87

e-mail: hamdamoverkin5@gmail.com

Orcid: 0009-0003-0761-964X

Annotatsiya: Mazkur maqola Forobiy va Ziyog‘okalpning falsafiy qarashlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning umumiy jihatlari va o‘ziga xos tomonlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda Forobiyning inson kamoloti va davlat boshqaruvidagi ideal yondashuvlari hamda Ziyog‘okalpning millat, jamiyat va madaniyatga oid qarashlari o‘rtasidagi mushtarakliklar va farqlar tahlil qilinadi. Maqola ularning g‘oyaviy o‘xshashliklari, jumladan, inson ma’naviyati, ijtimoiy uyg‘unlik va ma’rifatparvarlik tamoyillariga asoslangan jihatlari ochib beradi. Shu bilan birga, ularning tarixiy, madaniy va ilmiy merosi jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Forobiy falsafasi, Ziyog‘okalp qarashlari, inson kamoloti, ijtimoiy uyg‘unlik, milliy madaniyat, ma’naviyat, qiyosiy tahlil, mushtaraklik, falsafiy yondashuv, madaniy meros.

ОБЩИЕ АСПЕКТЫ И СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИДЕЙ ФАРАБИ И ЗИЁ ГОКАЛПА

Аннотация:

Статья посвящена изучению философских взглядов Фараби и Зиё Гокалпа и ставит своей целью сравнительный анализ их общих сторон и особенностей. В исследовании анализируются сходства и различия между идеальными подходами Аль-Фараби к совершенству человека и государственному управлению и взглядами Зиё Гокалпа на нацию, общество и культуру. В



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

статье раскрывается их идейное сходство, в том числе основанное на принципах человеческой духовности, социальной гармонии и просвещения. В то же время их историческое, культурное и научное наследие освещает их вклад в развитие общества.

Ключевые слова: философия Фараби, взгляды Зиё Гокалпа, человеческое совершенство, социальная гармония, национальная культура, духовность, сравнительный анализ, общность, философский подход, культурное наследие.

GENERAL ASPECTS AND SPECIFIC ASPECTS OF THE IDEALS OF FORABI AND ZIYO GOKALP

Abstract:

This article is devoted to the study of the philosophical views of Forabi and Ziygo Go'kalp, and is aimed at a comparative analysis of their common aspects and specific aspects. The study analyzes the commonalities and differences between Forabi's ideal approaches to human development and state administration and Ziygo Go'kalp's views on the nation, society and culture. The article reveals their ideological similarities, including those based on the principles of human spirituality, social harmony, and enlightenment. At the same time, it highlights the contribution of their historical, cultural, and scientific heritage to the development of society.

Keywords: Farabi's philosophy, Ziygo Gokalp's views, human perfection, social harmony, national culture, spirituality, comparative analysis, commonality, philosophical approach, cultural heritage.

Kirish

Forobiy va Ziygo G'okalp insoniyat tarixidagi buyuk faylasuflar bo'lib, ularning g'oyalari jahon madaniyati va falsafasida alohida o'rin tutadi. Forobiy Sharq falsafasining peshvosi sifatida inson kamoloti, ijtimoiy uyg'unlik va davlat



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

boshqaruvi masalalariga bag'ishlangan ilmiy va falsafiy qarashlari bilan mashhur. Uning g'oyalari inson va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ma'naviyat va ma'rifatni jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ko'rsatadi. Ziyos G'okalp esa zamonaviy turk milliy fikri va jamiyatshunosligi asoschilaridan biri bo'lib, millat, madaniyat va ijtimoiy birlik masalalarini o'z falsafasining markaziga qo'yadi. U milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish orqali jamiyatni mustahkamlash tamoyillarini ilgari suradi. G'okalpning qarashlari modernizm va an'anaviylikning uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan.

Mazkur tadqiqot Forobiy va Ziyos G'okalp g'oyalarining umumiy jihatlari va o'ziga xos tomonlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ularning inson ma'naviyati, jamiyat taraqqiyoti va milliy birlik masalalaridagi qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu maqola ularning fikrlari va tamoyillaridagi o'xshashliklarni hamda tarixiy va madaniy kontekstga mos ravishda shakllangan farqlarni yoritishga qaratilgan. Forobiy va Ziyos G'okalp g'oyalarining o'zaro bog'liqligi, ularning falsafiy qarashlarining zamonaviy jamiyatga ta'siri tadqiqotning asosiy maqsadidir.

Ziyos G'okalp (23.3.1876, Diyorbakir - 25.10.1924, Istanbul)- ziyoli turk ma'rifatparvar yozuvchisi, ijtimoiy olim, faylasuf, shoir va siyosatchi. Parlament va Turkiya Buyuk Millat Majlisida deputatlik qilgan.

Ziyos G'okalp "turk millatchiligining otasi" deb ham atashadi¹. Bunga sabablar va omillar juda ko'p buni biz u qilgan ishlari va asarlari, g'oyalari orqali bilishimiz mumkin.

Forobiy (Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' Tarxon Forobiy) (873, Farob shahri - 950, Damashq) - O'rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan uchun „al Muallim as-soniy“ („Ikkinchi muallim“, Aristoteldan keyin), „Sharq Arastusi“ nomlariga sazovor bo'ldi².

¹ https://tr.wikipedia.org/wiki/T%C3%BCrkiye_B%C3%BCy%C3%BCk_Millet_Meclisi

² [https://uz.wikipedia.org/wiki/Forobiy#:~:text=Farobiy%20\(taxallusi%3B%20to%CA%BBliq,nomlariga%20sazovor%20bo%CA%BBldi.](https://uz.wikipedia.org/wiki/Forobiy#:~:text=Farobiy%20(taxallusi%3B%20to%CA%BBliq,nomlariga%20sazovor%20bo%CA%BBldi.)



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

Forobiyni bu nom bilan atalishiga sabablar ko`p. Qomusiy olimning ijodiga nazar tashlasak dunyoqarashida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy fikrlar ham muhim o`rinni egallashi, bundan tashqari asarlarida jamiyat va uni boshqarish, axloq-odob va ta`lim-tarbiya masalalariga bag`ishlanganligida.

Forobiy va Go`kalp dunyoqarashi kengligi, teranligi, o`ziga xos jihatlarga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiyni 70 dan ortiq tilni bilganligi³, Go`kalpning zamonaviy ta`limga e`tibor qaratgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Forobiy. "Fozil odamlar shahri". Ushbu asar Forobiyning ijtimoiy va axloqiy tamoyillarini ochib beruvchi muhim manba hisoblanadi. Unda ilm, axloq, va boshqaruvning birligi haqida chuqur mulohazalar ilgari surilgan. Masalan, A. Yo`ldoshev va boshqa mualliflar Forobiyning ilm-falsafiy g`oyalari va ularning zamonaviy hayotdagi ahamiyati haqida tadqiqotlar olib borishgan. Ziyos G`okalp Turkiyaning milliy uyg`onish davrida katta rol o`ynagan. Ziyos G`okalpning "Turkchilik asoslari" asarida Ziyos G`okalpning turk milliy ongini shakllantirishdagi falsafiy va ijtimoiy tamoyillarini o`z ichiga oladi. U turkiy xalqlarning birdamligi va milliy identifikatsiyasini mustahkamlashga qaratilgan qarashlarni ilgari suradi.

Ikkala mutafakkir ham ilmni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko`rsatadi. Forobiyning "fozil odamlar" konsepsiyasi va Ziyos G`okalpning milliy madaniyat va bilim uyg`unligi haqidagi qarashlari bir-biriga yaqin. Forobiyning axloqiy qarashlari va Ziyos G`okalpning milliy axloq tamoyillari jamiyatning ma`naviy asosi sifatida ko`riladi. Har ikkisi ham davlatni jamiyatning barqarorlik va rivojlanish manbai sifatida talqin qilgan. Forobiyning g`oyalari yunon falsafasidan ilhomlangan va ular chuqur nazariy jihatlar bilan boyitilgan bo`lsa, Ziyos G`okalp pragmatik yondashuvni tanlagan. Forobiy insoniyatning umumiy madaniy merosini qadrlagan bo`lsa, Ziyos G`okalp turkiy madaniyatni mustahkamlashga qaratilgan.

³ Abu Nasr Forobiy —Fozil odamlar shahril. Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 201-bet



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

Forobiy va Ziyo G'okalp g'oyalari bir-birini to'ldiruvchi, lekin o'ziga xos yondashuvlarga ega bo'lgan ilmiy va madaniy merosni tashkil etadi. Ularni o'rganishda nafaqat ularning asarlari, balki zamonaviy tadqiqotchilarning ishlarini ham ko'rib chiqish lozim. Bu mavzudagi adabiyotlar Forobiy va Ziyo G'okalp g'oyalarining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Metodlar

Tadqiqotning maqsadi Forobiy va Ziyo G'okalp g'oyalarining mushtarak va farqli jihatlarini aniqlash hamda ularning falsafiy va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Quyida tadqiqotda qo'llanilgan asosiy metodlar bayoni keltiriladi:

1. Tarixiy-taqqosiy metodi- Forobiy va Ziyo G'okalp g'oyalarining tarixiy sharoitlari va ularning ilmiy-falsafiy qarashlariga ta'sir qilgan omillarni o'rganish uchun ishlatiladi. Bu metod yordamida:

- Har ikki mutafakkir yashagan davrning ijtimoiy, madaniy, va siyosiy sharoitlari tahlil qilinadi.
- Ularning g'oyalaridagi umumiylik va farqlar tarixiy kontekstda qiyosiy o'rganiladi.

2. Falsafiy tahlil metodi- Forobiy va Ziyo G'okalpning ilmiy-falsafiy qarashlarini tahlil qilishda bu metod asosiy o'rin tutadi. Metodning qo'llanilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ularning asarlaridagi asosiy tushunchalar va g'oyalarni falsafiy jihatdan izohlash.
- Ilm, axloq, tarbiya va jamiyat haqida ilgari surilgan konsepsiyalarni o'rganish.

3. Maqsadli qiyoslash metodi- har ikki mutafakkirning g'oyalarini qiyoslash uchun ishlatiladi. Bu yondashuv orqali:

- Ularning ilmga bo'lgan munosabati, axloqiy qarashlari va jamiyat rivojlanishidagi o'rnini taqqoslash.
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga oid qarashlarining o'zaro bog'liqligini aniqlash.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

4. Matnshunoslik metodi orqali Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asari va Ziyo G'okalpning "Turkchilik asoslari" asari matnlari chuqur o'rganiladi. Metodning qo'llanilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Asarlardagi asosiy mazmun va g'oyalarning ilmiy tahlili.
- Asarlarda ishlatilgan termin va tushunchalarning mazmun-mohiyatini izohlash.

5. Strukturaviy yondashuv metodi orqali Forobiy va Ziyo G'okalp g'oyalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Bu usul yordamida:

- Har ikki mutafakkirning qarashlarida mavjud bo'lgan strukturaviy elementlar (ilm, axloq, tarbiya, madaniyat) aniqlanadi.
- Ularning bir-biri bilan o'zaro aloqasi va farqlari aniqlanadi.

6. Sotsiologik tahlil metodi Forobiy va Ziyo G'okalpning jamiyatga oid qarashlarini o'rganishda bu metod qo'llaniladi.

- Ularning jamiyat va davlatga oid nazariyalari tahlil qilinadi.
- Zamonaviy sotsiologik yondashuvlar orqali ularning g'oyalarining amaliy ahamiyati baholanadi.

Tadqiqot metodlari bir-birini to'ldiruvchi tarzda qo'llanilib, Forobiy va Ziyo G'okalp g'oyalarining chuqur va keng ko'lamli tahlilini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu metodik yondashuvlar mavzuni ilmiy asosda chuqur o'rganish imkonini beradi va mavzuga oid yangi ilmiy xulosalar chiqarishda yordam beradi.

Natijalar. Tadqiqot davomida Forobiy va Ziyo G'okalpning ilmiy, falsafiy va ijtimoiy g'oyalari qiyosiy tahlil qilindi va quyidagi asosiy natijalar aniqlandi: Har ikkala mutafakkir ham ilmni jamiyat taraqqiyotining bosh omili sifatida ko'rgan. Forobiy "fozil odamlar shahri"ni ilm-fan asosida barpo etishni nazarda tutgan bo'lsa, Ziyo G'okalp ilm va madaniyat uyg'unligini milliy taraqqiyotning garovi deb hisoblagan. Forobiy falsafasida axloq tushunchasi siyosatga kirishdir⁴. Forobiy inson axloqiy barkamolligini jamiyatning barqarorligi uchun asosiy omil sifatida ko'rsatgan. Ziyo G'okalp esa milliy axloqni millatni birlashtiruvchi kuch

⁴ Oltintop, "Ebu Nasr El-Farobiyning ideal davlatni tushunishi", 51-bet.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

sifatida talqin qilgan. Har ikkisi ham barqaror davlatni jamiyatning asosiy tayanchi sifatida ko'rgan.

Forobiy ideal jamiyatni fazilatli odamlar tomonidan boshqarilishini ta'kidlagan, Ziyo G'okalp esa davlatning milliy birlikni ta'minlashdagi rolini ta'kidlagan. Forobiy yunon falsafasiga, xususan, Aristotel va Platon qarashlariga asoslangan holda o'z nazariyalarini ishlab chiqqan⁵. Ziyo G'okalp esa pragmatik yondashuvdan kelib chiqib, milliy manfaatlarni ilgari surgan. Forobiy umumjahon madaniy merosini qadrlashni va uni barcha insoniyatga xos qadriyat sifatida ko'rsatishni nazarda tutgan. Ziyo G'okalp esa turkiy madaniyatni millatning asosi sifatida targ'ib qilgan. Forobiy asarlarida nazariy qarashlar ustunlik qilsa, Ziyo G'okalp o'z g'oyalarni amaliy hayotga tatbiq etishga intilgan. Masalan, Ziyo G'okalpning milliy tarbiya va madaniy uyg'onish haqidagi qarashlari Turkiyaning milliy harakati bilan uzviy bog'liq. Forobiy g'oyalari zamonaviy falsafiy va axloqiy masalalarni hal qilishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan universal tamoyillarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, ilm, axloq va adolat kabi tushunchalar bugungi kun jamiyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ziyo G'okalpning milliy uyg'onish va madaniy birlashuvga oid qarashlari bugungi kunda milliy davlatlar va turkiy xalqlar birligini mustahkamlashda amaliy ahamiyatga ega.

Forobiy falsafiy yondashuvlari bilan ko'proq universal qamrovga ega bo'lsa, Ziyo G'okalp g'oyalari milliy doirada cheklangan, lekin turkiy xalqlar uchun chuqur amaliy ahamiyatga ega. Har ikkisi ham o'z zamonasining ijtimoiy va siyosiy talablariga mos holda g'oyalarni ilgari surgan. Forobiyda bu ilm-fan va falsafiy tafakkurda aks etsa, Ziyo G'okalp g'oyalari milliy o'zlikni anglash va uyg'onish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Forobiy va Ziyo G'okalp g'oyalari o'rtasidagi mushtaraklik ilm, axloq va jamiyat tushunchalarida yaqqol namoyon bo'lsa, ularning o'ziga xosligi falsafiy va madaniy yondashuvlarida ko'zga tashlanadi. Tadqiqot natijalari ushbu mutafakkirlarning qarashlarini o'rganish nafaqat

⁵ Ceyda Altıntop, "Ebu Nasr El-Farabiyning ideal davlat kontsepsiyasi", Akademia ijtimoiy fanlar jurnali, 2016, 1, 49-bet



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

ularning davridagi muammolarni, balki bugungi kun dolzarb masalalarini hal qilishda ham muhimligini ko'rsatdi. Ushbu natijalar Forobiy va Ziyo G'okalp g'oyalarini chuqurroq o'rganish va ularning amaliy ahamiyatini oshirishga zamin yaratadi.

Muhokama

Ushbu tadqiqot davomida Forobiy va Ziyo G'okalp g'oyalari o'rtasidagi mushtaraklik va farqlarning chuqur tahlili o'tkazilib, ularning ijtimoiy, madaniy va falsafiy qarashlari har tomonlama muhokama qilindi. Forobiy va Ziyo G'okalpning qarashlarida ilm-fan va axloqning jamiyat barqarorligi uchun muhimligi ta'kidlanadi. Biroq, Forobiy ilmni universal hodisa sifatida ko'rib, uni insoniyatning umumiy boyligi sifatida talqin etadi. Ziyo G'okalp esa ilmni milliy uyg'onish vositasi sifatida ko'rib, turk millatining intellektual va madaniy rivojlanishini nazarda tutadi. Muhokamada shuni aytish mumkinki, har ikkala mutafakkirning ilmga bo'lgan yondashuvi o'z davrining ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Forobiy umumbashariy qadriyatlarni rivojlantirishga intilgan bo'lsa, Ziyo G'okalp milliy o'zlikni mustahkamlashni maqsad qilgan. Bugungi kunda ularning ilm-fanga oid qarashlarini uyg'unlashtirish orqali global va milliy rivojlanishni birlashtiruvchi model yaratish mumkin. Forobiy insoniyat madaniyatini yagona tizim sifatida ko'rib, unda barcha xalqlar o'z hissasini qo'shishi kerakligini ta'kidlaydi. U ilm va madaniyatni birlashtirish orqali barkamol jamiyatni qurishni maqsad qiladi. Aksincha, Ziyo G'okalp turk madaniyatini markaziy o'ringa qo'yib, milliy birlashuv va madaniy uyg'onishni ta'minlashni maqsad qilgan.

Go'kalpning fikricha, davlat qonunlar orqali ishlaydigan siyosiy mashinaga o'xshaydi⁶. Darhaqiqat siyosiy mashina siyosiy kuch bilan ishlaydi, bu norasmiy omil. Go'kalp ham davlatni bir mashina sifatida ko'radi. Bu qarashda davlat tushunchasi o'ziga xos sifatga ega emasligi va unga siyosiy kuchlar ma'no berishini, siyosiy kuchlar, siyosiy boshqaruvlardagi farqlar bilan bog'liq emasligi, siyosiy hokimiyatlar barcha siyosiy boshqaruvlarda mavjud va ularning barchasi turli shakllarda yuzaga keladi. Go'kalpning fikricha, davlat siyosiy kuch bo'la

⁶Gökalp, Z., *Makaleler VII:(küçük mecmuadaki yazılar)*. Kültür Bakanlığı, 1982. S-274



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

olmaydi, chunki qonunlar uni mashina holatiga qo'yadi. Bu mashinani boshqaradigan siyosiy kuchlardir. Fuqarolar siyosiy vakolatlar muvozanatini ta'minlaydi.

Davlat jamiyatdagi barcha shaxslarning turmush darajasini yuqori ushlab turishi kerak. Ijtimoiy adolat ta'minlangan va iqtisodiyoti tartibga solinadigan jamiyatlar sivilizatsiya rivojlangan va sivilizatsiyaning eng yuqori darajasiga erishgan jamiyatlar bo'ladi. Go'kalp ham davlatning mavjudligini qabul qildi, ham davlatning barcha vakolatlarga ega bo'lishiga qarshi chiqdi. Unga ko'ra, davlat madaniy tartib, matbuot organlari, fan va san'atshunoslikka aralashmasligi, bu sohalarning taraqqiyoti va rivojlanishiga faqat iqtisodiy yordam ko'rsatishi kerakligini ko'rishimiz mumkin.

Go'kalp, ideal davlatning o'z milliy madaniyatidan ulush olib, o'z davrining sivilizatsiya tuzilishini o'z shaxslariga o'tkazadigan siyosiy kuchlar ekanligini ta'kidlaydi.⁷ Bundan kelib chiqqan holda, Go'kalpning siyosiy qarashi va ijtimoiy nazariyasida elita muhim o'rin tutgan.

Jamiyatda insonlar doim o'z baxti-saodatini, o'z urnini topsagina baxtga erishadi, buning uchun avvalo har bir inson o'zi sevgan kasbni tanlashi va o'z ustida doim izlanishi va bu o'z navbatida moddiy faravonlikning yuksalishiga olib keladi⁸, deb ta'kidlaydi Abu Nasr Forobiy. Demak, insonning sevgan kasbiga ega bo'lishi uning ma'naviy tomoni bo'lsa, ana usha ma'naviyat asosida moddiy faravonlikka erishishi mumkin. Buni butun bir jamiyat miqiyosida oladigan bo'lsak, ya'ni jamiyatda yashovchi har bir odam muayyan kasb-korga ega bo'lsa, qolaversa, kishilarda o'zaro hamjixatlik munosabatlari barqaror bo'lsa, shu jamiyatda ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan yuksalish, o'sish bo'ladi.

Muhokama davomida shuni qayd etish lozimki, Forobiy g'oyalari globallashuv jarayonlariga mos keluvchi universal yondashuvni aks ettiradi. Ziyo G'okalp esa globallashuvning milliy identifikatsiyani yo'qotish xavfini kamaytiruvchi yondashuvni taklif etadi. Ushbu ikki yondashuv bir-birini to'ldiruvchi omillar

⁷ Ensar Yilmaz, "Ziya Gökalpda Siyosat-Jamiyat Munosabati", Yangi Dunyo Fanlar Akademiyasi E-Jurnal, 2010, Jildi: 5, Son: 3, s. 205-207.

⁸ Abu Nasr Forobiy —Fozil odamlar shahril. Abdulla Qodiriy nashriyoti, Toshkent, 1993, 40 – 41 – betlar



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

sifatida qaralishi mumkin. Forobiy ideal jamiyatni axloqiy va ilmiy fazilatlarga ega bo'lgan odamlar boshqarishi kerakligini ta'kidlagan. Ziyo G'okalp esa davlatni milliy ongini mustahkamlovchi va milliy birlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida ko'rsatgan. Muhokama shuni ko'rsatadiki, Forobiy davlatni universal adolat va ilm asosida boshqarishni taklif qilgan bo'lsa, Ziyo G'okalp milliy manfaatlarni ustuvor qo'ygan. Bugungi zamonaviy davlatlar rivojlanishda bu ikki qarashni uyg'unlashtirish orqali muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Forobiy va Ziyo G'okalp g'oyalari zamonaviy jamiyatlar uchun universal va milliy tamoyillarni uyg'unlashtirishda yo'l ko'rsatadigan model vazifasini o'taydi. Forobiyning universalizmga asoslangan yondashuvi globallashtirish jarayonlarida muhim bo'lsa, Ziyo G'okalpning milliy uyg'unlashga asoslangan yondashuvi milliy madaniyat va identifikatsiyani saqlashda asosiy ahamiyatga ega. Mazkur muhokama Forobiy va Ziyo G'okalp g'oyalarini zamonaviy ilmiy-nazariy va amaliy doirada qayta ko'rib chiqishga yordam beradi va ularning ilmiy merosini yangi kontekstlarda qo'llash imkonini beradi.

Xulosa

Odamlar birgalikda yashashi natijasida ko'plab omillar paydo bo'ldi. Bu omillar ijobiy bo'lsa-da, salbiy omillar ham mavjud. Davlat kontsepsiyasi ijtimoiy hayotdagi ko'plab manfaatlar to'qnashuvi va bu ziddiyatlar keltirib chiqaradigan tartibsizliklarning oldini olish, jamiyatda yashovchi shaxslarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va ijtimoiy tartibni ta'minlash maqsadida vujudga kelgan.

Tadqiqotimizda Forobiy va Ziyo Go'kalpning davlat haqidagi tushunchalarini qiyoslash yuzasidan baho berayotganda, har ikki mutafakkirning turli davrlarda yashaganliklarini va bu davrlar o'rtasida ko'plab madaniy, diniy va siyosiy tafovutlar mavjudligini ta'kidlash lozim.

Ziyo Go'kalp Forobiyning fazilatli davlat haqidagi qarashlaridan tashqari, o'zi yashagan jamiyat yoki geografiya ta'siri bilan ham davlat haqidagi o'z nuqtai nazarini ifodalagan. Ziyo Go'kalp davlat haqidagi fikrlarini eng ko'p "Turklashtirish, islamlashtirish, zamonaviylashtirish va turkiylik asoslari" nomli asarida ifodalagan. Ziyo Go'kalpning davlat haqidagi qarashlari turkiylik



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

qarashlari bilan parallel ravishda paydo bo'lgan milliy davlat va millatchilik tushunchasiga asoslanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 159.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Abdulla qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 320-bet.
3. Ziya Gökalp, Terbiyenin sosyal va kültürel temelleri. –Istanbul 1992.
4. Ziya Gökalp, Türkçülüğün Esaslari Anadolu Universitesi'ne aittir. Eskişehir, – Temmuz 2019
5. Celkan, Hikmet. Ziya Gökalp'in Eğitim Sosyolojisi. Ankara: Milli Eğitim Bakanlığı, 1989.
6. Göksel, Ali Nüzhet. Ziya Gökalp: Hayatı-Eserleri. İstanbul: Ahmet Halil Kitabevi, 1949.
7. Ismatullayeva N.R. Konfutsiy asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy atamalar semantikasi va ularning tarjimada berilishi: monografiya.- Toshkent: Nodirabegim, 2020.
8. Çelik, A., (2018). "Farabi"nin Siyasal Felsefesinde Mutluluk ve "İlk Başkanlık"Arasındaki Zorunlu İlişki." İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi.7.1, 265-284.
9. Gökalp, Z., Makaleler VII:(küçük mecmuadaki yazılar). Kültür Bakanlığı, 1982.
10. Bars, M.E., (2017). "Ziya Gökalp ve Türkçülük üzerine bazı değerlendirmeler." Adnan Menderes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi 4.2, 38-51.
11. Xamdamov, E. I. (2024). Ziya go 'kalpning hissiy va ratsional axloq to 'g 'risidagi qarashlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(11), 154-161.
12. Xamdamov, E. (2024). Ziya go 'kalpning "to 'g 'ri yo 'l" asarida ijtimoiy va siyosiy tamoyillar. Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 43-45.
13. Xamdamov, E. (2024). Ziya go 'kalp falsafasida axloq va metafizikaning aloqadorligi. Tamaddun nuri jurnali, 12(63), 22-24.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th March, 2025

14.https://tr.wikipedia.org/wiki/T%C3%BCrkiye_B%C3%BCy%C3%BCk_Millet_Meclesi

15.<https://muhaz.org/abu-nasr-Forobiyning-hayoti-yoli-abu-nasr-forobiyning-ilmiy-me.html?page=7>